
UZBEK
ANTHOLOGY
SIMPLE TEXTS FOR LANGUAGE LEARNERS
second edition
ikkinchi nashr

Editor: Jan Oko - https://ioannesoculus.com/

Co-editor: Fayzulla Halillayev - https://www.italki.com/teacher/5914398

Authors:

- Fayzulla Halillayev
- Jan Oko
- Anvar Xojiqulov

second edition, corrected version

Katowice 2020

Introduction

When I started learning Uzbek, I quickly turned it into my passion. There was (and is) something oriental, exotic in the language which I found fascinating. However, the available resources are scarce, and I found them not to be very useful. Many of them provide a lot of information in English on the language and culture but they do not provide the students with texts, stories and multiple examples. This led me to the idea of filing in this gap and creating a resource for learners, especially less advanced ones, and create an anthology of simple texts that can facilitate acquisition of the Uzbek language. The result is this little document which hopefully will grow with each next edition.

I must mention that the project is a private initiative with no founding. I have used my private resources to create the pdf. The authors agreed that their texts would be published free of charge. Because of this. I want to thank them very much for their work. I hope you too will appreciate their effort.

Last but not least, I would like to thank my Uzbek teacher and co-editor of this book, Fayzulla Halillayev. He is a very patient and good teacher. He was always exceedingly kind when I brought any crazy ideas to our lessons, patient when I asked questions and agreed to give his time and work for this project. Thank you very much!

Participate!

Now it is time for you. Enjoy reading the book and share it with others. I am also looking for people to write more simple texts for future editions. If you want to participate or know someone who can help, please do it! You are most welcome to bring your texts to the project. More information can be found on my website: https://ioannesoculus.com/2020/03/30/simple-uzbek-texts-anthology-a-project-to-create-language-learning-resources/

Contact

If you want to contact me to participate in the Project or for any other reason, please message me on Facebook: https://www.facebook.com/IoannesOculus/

Disclaimer

I double-checked the text to be correct and asked Uzbek native speakers for checking the style, grammar, spelling etc. However, one can never avoid a mistake. If you find any, please let me know, so I can correct it in a future version. I hold no responsibility if the information (text, translations, vocabulary lists etc.) contains any errors and mistakes.

I also doubled checked all the material so that it does not infringe anyone's copyrights. However, if any of the material presented does, in fact, infringe anybody's rights, I will immediately delete it on request.

Simple dialogues

Salom!

by Jan Oko

John: Salom!

Marek: Salom! Qandaysiz??

John: Men yaxshiman, rahmat. Ismingiz nima?

Marek: Mening ismim Marek.

John: Siz Polshadanmisiz?

Marek: Ha. Men Polshadanman.

Qayerdansiz #1?

by Jan Oko

John: Salom Kate. Qalaysiz?

Kate: Salom John. Yaxshiman, rahmat. Siz-chi?

John: Men ham yaxshiman. Sophia va James qayerdan?

Kate: Ular Amerikaliklar. Ular Nyu Yorkdan.

John: Aziz va Lola-chi? Ular qayerdan?

Kate: Ular O'zbekistondan. Ular o'zbeklar.

Qayerdansiz #2?

by Jan Oko

John: Salom!

Doniyor: Salom! Qandaysiz?

John: Men yaxshiman, rahmat. Siz qandaysiz?

Doniyor: Men ham yaxshiman, rahmat.

John. Mening ismim John. Sizning ismingiz nima?

Doniyor: Mening ismim Doniyor. Men O'zbekistondanman. Siz qayerdansiz?

John: Men Angliyadanman. Tanishganimdan xursandman.

Doniyor: Men ham tanishganimdan xursandman. Xayr!

John: Xayr!

Sizning ismingiz nima?

by Jan Oko

Doniyor: Salom! Ismingiz nima?

Aziz: Salom! Mening ismim Aziz. Sizning ismingiz nima?

Doniyor: Mening ismim Doniyor. Siz O'zbekistondanmisiz?

Aziz: Ha! Siz-chi? Siz ham O'zbekistondanmisiz?

Doniyor: Ha, men O'zbekistondanman, Toshkentdan. Siz ham Toshkentdanmisiz?

Aziz: Yo'q. Men Samarqandlikman.

Doniyor: Tanishganimdan xursandman.

Aziz: Men ham tanishganimdan xursandman.

Men kimman?

Men Sardor

by Anvar Xojiqulov

Men Sardor Babayev, O'zbekiston respublikasi Toshkent shahrida yashayman. Men qurilish sohasida injener bo'lib ishlayman. Mening vazifam qurilishning hujjatlari bilan ishlashdan iborat, misol uchun chizmalar, smetalar, dalolatnomalar.

Men bo'sh vaqtlarimda futbol ko'rishni yoqtiraman, ba'zan do'stlarim bilan mini futbol ham o'ynab turamiz. Hozir O'zbekistonda kuchli karantin payti, koronovirusga qarshi kurashish uchun shunday qilindi. Hech kim ko'chaga ham chiqmayapti, ishga ham bormayapti, faqatgina shifokorlar va maxsus xizmat xodimlari ishga boryishyapti. Qolgan odamlar uyda, bekorchilikdan zerikyapmiz, faqat televizor ko'rib, internetda vaqt o'tkazyapmiz.

o'ynab turamiz = o'ynaymiz

Mening ismim John

by Jan Oko

Mening ismim John va men Angliyada yashayman. Men London shahrida yashayman va katta idorada ishlayman. Men dasturchiman va kompyuter o'yinlarini yozaman. Mening ishim juda qiziqarli.

Mening hobbim kompyuter o'yinlari va tarix. Men muzeylarga borishni yaxshi ko'raman. Mening sevimli muzeyim Britaniya Muzeyi. U yerda ko'p qiziqarli narsalar bor, misol uchun Misr haykallari va qadimgi qurollar. Muzeyda ko'rgan narsalarim mening o'yinlarimga ilhom bag'ishlaydi.

Men tillarni ham o’rganaman. Hozir men ingilizcha va ispancha gapiraman va o'zbekcha o’rganyapman. Menga o'zbek tili va O'zbekistonning tarixi yoqadi.

dasturchi – programmer
Misr haykallari – Egyptian statues
qadimgi qurollar – ancient weapons
ilhom – inspiration

Mening oilam

by Fayzulla Halillayev

Mening oilam katta emas. Mening oilamda 4 kishi bor. Men, xotinim, qizim va og’lim. Afsuski, men oilam bilan emasman. Men O’zbekistondaman, oilam esa Turkiyada. Men O’zbekistonda ishlayman. Bu yerda bizning kichik shirkatimiz bor va men bu shirkatning ishlarini yurutaman. Men Toshkent shahrida ishlayman va kichik bir kvartira ijaraga olaman. Bu kvartira futbol stadioniga va kasalxonaga yaqin. Toshkent chiroyli va katta shahar.

Xotinim ham bu shirkatda ishlaydi, lekin u Mersinda uydan ishlaydi. Qizim 23 yoshida. U Istanbulda o’qiydi va biroz ishlaydi. Istanbul katta va chiroyli shahar. Istanbulda qizimning kvartirasi bor. Lekin hozir u ham Mersinda, chunki hamma yerda karantin bor.

Og’lim 14 yoshida. U esa maktabda o’qiydi. Og’lim ham xotinim bilan Mersinda yashaydi. Uning chiroyli mushugi bor va og’lim uni juda yaxshi ko’radi.

Keyingi oy men uyimga bormoqchiman, chunki oilamni juda sog’indim.

shirkat - company/office
Mersin - Turkiyada bir shahar.

Mening kunim

Ismim Jamshid

by Fayzulla Halillayev

Ismim Jamshid. Men 23 yoshimdaman. Men talabaman. Hozir ertalab soat 9. Men har doimgidek qahvaxonadaman va issiq latte ichyapman. Men qahvani juda yaxshi ko'raman.

Odatda shahrimizda ertalab juda ko'p insonlar bor. Bugun havo bulutli, lekin yomg'ir yog'mayapti. Men bulutli havoni yaxshi ko'rmayman, chunki bu mening kayfiyatimga yomon tasir qiladi. Men quyoshli havoni va dengizni yaxshi ko'raman.

Insonlar bekatda avtobus kutushyaptilar. Ayolning kayfiyati yo'q, menimcha u ishga kech qolyapti. Uning yonidagi erkak gazeta o'qiyapti. O'quvchilar ota-onalari bilan maktabga boryaptilar. Maktab soat 9:30 da boshlanadi.

Avtobus bekatga soat 9:10 da keladi. Men bu avtobusga minaman va universitetga ketaman.

boshlamoq – to start
boshlanmoq – to be started
har doimgidek – as usual
kayfiyat – mood
kech qolmoq – to be late
minmoq – to take (bus, metro, car)
tasir qilmoq – to effect

Bahrom uxlay olmaydi

by Jan Oko

Bahrom aka beshinchi kvartirada yashaydi. U bugun xomush ko'rinadi. U bugun ko'p ishladi va juda charchadi. U uxlashni istaydi lekin binoda juda notinch. Faqat to'qqizinchi kvartiradagi qo'shnilar uxlayaptilar. Ular bu shovqinda qanday qilib uxlay olishadi? Bahrom bilmaydi. Birinchi kvartiradagi qo'shni ham tinch, u o'qiyapti va musiqa tinglayapti. Uning naushniklari bor. Lekin afsus, boshqa qo'shni yomon qo'shnilar.

Tepadagi qo'shnilar janjallashyaptilar. Uchinchi kvartiradagi qo'shnilar baland ovozda film izlayaptilar.

Chap tarafdagi qo’shnining bolasi yig’layapti. O’ng tarafdagi qo’shni gitara chalyapti.

Pastdagi, yettinchi kvartiradagi qo’shnining iti vovillayapti, sakkizinchi kvartirada bazm bor. Qo’shnilar va ularning mehmonlari musiqa tinglayaptilar, raqs tushishyapti va baland ovozda suhbatlashayaptilar.

Ko’chada ham notinch. U yerda odamlar gapiryaptilar va baqiryaptilar. Balki ular diskotekaga ketishayotgandir.

Vaqt juda kech va Bahrom juda charchagan. Ustiga ustak u ertaga ishga borishi kerak. U nima qilishi kerak?

Shahar

by Jan Oko

Men shaharimning markazida yashayman. Mening uyim shaharning markazida joylashgan. Shuning uchun uyimning yonida hamma narsa bor. Mening ko'chamda ikkita do'kon bor. U yerda men endigina uzilgan mevalar va sabzavotlar sotib olaman. Do'konlarning yonida gazeta sotadigan do'kon bor. U yerda gazetalar va jurnallar sotib olaman. Kioskning qarshisida qahvaxona bor. Xar kun ertalab u yerda men gazeta o'qiyman va qahva ichaman. Soat o'nda ishlashni boshlayman. Men kitob do'konida ishlayman. U mening ko'chamning burchagida joylashgan. Soat ikkida mening tushlik tanaffusim bor. Odatda men restoranga boraman. U kitob do'konidan o'n besh (15) metr narida.

Ishdan so'ng men bog'ga aylanishga boraman. Odatda men skameykada o'tiraman va kitob o'qiyman. Bir yoki ikki soatdan keyin uyimga boraman.

Mening ko'chamning yonida supermarket, bank, kino va teatr ham bor. Shuning uchun mening moshinam yo'q. Men hamma joyga piyoda bora olaman.

endigina uzilgan - fresh
tong – morning
piyoda borish – to go on foot

O’yin-kulgi

by Jan Oko

Mening jiyanlarim Lego o'ynashni yaxshi ko'radilar. Lego bu oddiy plastik g'ishtlardir, lekin jiyanlarim ulardan ajoyib saroylar, kosmik raketalar va moshinalar quradilar.

Bir kuni ular katta qasr qurdilar. Uning ikkita katta minorasi va devori bor edi. Qasrda ko’prik va darvoza bor edi. Qasrda shoh va uning ritsarlari yashar edilar. Afsuski qirollikda ajdaho ham yashar edi va qirollikning odamlari ajdahodan qo’rqishardi. Xayriyat qasrga qahramon keldi va u ajdarni o’ldirdi.

Boshqa safar ular qaroqchilar orolini qurdilar. Orolda katta xazina bor edi. Qaroqchilarning kemasi bor edi. Uzoq mamlakatlarga kema bilan suzib ketishdilar va ular oltin va zargarlik buyumlarini o’g’irladilar.

Mening jiyanlarimning tasavvuri juda katta.

jiyan - nephew
g’isht - brick
saroy – palace
qasr – castle
ritsar – knight
qirollik - kingdom
xayriyat – luckily
qahramon – hero
o’ldirmoq – to kill
orol – island
qaroqchi – pirate
kema – ship
tasavvur - imagination

Tabiat

Ayiq o’rmonda yashaydi. U qayerda asal borligini biladi shuning uchun u aqlli. U shirin asalni sevadi.

ayiq

o'rmon

asal

Tarix



dubulg'a - helmet
qo'ndoqli kamon – crossbow
nayza – spear
o'q – arrow
qalqon – shield
qilich – sword
sabzi – carrot
kamon – bow
titroq – quiver
tuk – feather

O'rta asrlar jamiyatida ritsarlar juda muhim edilar. Ritsarlar shoh uchun jang qilar edilar. Ular qilich bilan jang qilardilar. Ular otlarda yurar edilar va qasrlarda yashardilar. Ular jasur va kuchli edilar. Polshaning eng mashhur ritsari Zawisza Czarny (Zavisha Qora) edi.

o'rta asrlarga oid – medieval
o'rta asrlar – middle ages
ritsar – knight
otda yurmoq – to ride a horse
jasur – brave
kuchli – strong

Fan


Yer
Quyosh
aylanmoq - to turn around
aylanish - rotation
(Yerning quyosh atrofida aylanishi - the Earth rotation around the Sun)
Yer Quyosh atrofida aylanadi!
Nicolaus Copernicus (19-fevral, 1473 – 24-may, 1543) — Uyg'onish davrining Polshalik astronomi va Yerni olam markazidan olib tashlagan geliosentrik kosmologiyani shakllantirgan birinchi inson.

Quyosh tizimi

by Jan Oko



Quyosh tizimi bu koinotda bizning uy. Uning markazida quyosh bor. Quyosh bu yulduz. Biz uni katta yulduz deb o'ylaymiz lekin aslida bizning galaktikada undan ham ancha kattaroq yulduzlar bor. Uning atrofida sakkiz sayyora aylanadi.

Birinchi sayyora Merkuriy. U ham eng kichik sayyoradir. Lekin u juda issiq, chunki u quyoshing eng yaqinida. Merkuriy Rimning xudosi hisoblanadi. U tojirat xudosi bo'lgan.

Ikkinchi sayyora Venera. U Merkuriydan kattaroq lekin bizning Yerdan kichikroq. U yerda atmosfera juda zich va bosim to'qson ikki barobar Yerdan kattaroq. Venera ham Rim afsonalarida xudo bo'lgan. U juda chiroyli bo'lgan.

Uchinchi sayyora bizning Yer. U biz uchun eng muhim sayyora, bu bizning uyimiz. Faqat bu yerda suv bor, shu sababli Quyosh tizimida faqat bu yerda hayot bor. Yerning atrofida Oy aylanadi. Oyda atmosfera yo'q. Faqat Oyga insonlar borishgan. Oyda birinchi bo'lib amerikalik astronavt Neil Armstrong bo'lgan.

To’rtinchi va oxirgi ichki sayyora Mars. U Yerdan kichikroq va u yerda ham atmosfera bor. U yerga insonlar borishlari mumkin. Marsning ikkita oyi bor. Ular juda kichik. Mars Rim afsonalarida jang xudosi bo’lgan.

Ichki sayyoralar ortida asteroidlarning kamari bor. Asteroidlar kichik sayyoralarga o’xshash. Mars va Yupiter o'rtasida ko'plab asteroidlar mavjud.

Quyosh tizimining beshinchi sayyorasi va gazli gigantlardan birinchi sayyora Yupiter. U Quyosh tizimining eng katta sayyorasi. Uning atrofida yetmish to’qqiz oy aylanadilar. Yupiterning eng katta oyining nomi Gannimed. Yupiter Rim mifologiyasida oliy xudo bo’lgan.

Quyoshdan oltinchi sayyora Saturn. Saturn o’z xalqalari bilan mashhur va u Quyosh tizimining eng chiroyli sayyorasi. U ham gazli gigant, lekin Yupiterdan kichikroq. Qadimgi Rimliklar uchun u ekinlar xudosi bo'lgan.

Yettinchi sayyora Uran. U ham gazli gigant va uning ham xalqalari bor. Lekin ular unchalik chiroyli emas. Uran qadimgi Yunoniston osmonining xudosi bo’lgan.

To’qqizinchi va oxirgi sayyora Neptun. U Rim afsonalarida suvning va dengizning xudosi bo’lgan.

Neptun orqasida Kuiper kamari bor.

Bugun biz Quyosh tizimi haqida ko’p narsalarni bilamiz, lekin ko’p sirlar ham bor. Shuning uchun ko’p kosmik zondilar hamma joyga boradilar va u haqida yangi ma’lumotlar beradilar.



afsona – legend, myth
ancha = ko'p
asteroidlarning kamari – asteroid belt
aylanmoq – to go round
barobar = marta - times
bosim – pressure
ekinlar – crops
hisoblanadi - was considered
ichki sayyora – internal planet
jang - war
koinot – universe
o'xshash – similar
oliy – supreme
qadimgi – ancient
shu sababli = shuning uchun
tojirat xudosi – god of commerce
Yunon - Greek
zich – dense

News (Yangiliklar)

Rus aktyori bilan sodir bo’lgan baxtsiz hodisa.

by Fayzulla Halillayev

O’tgan kun Moskvada avtohalokat sodir bo’ldi. Ikkita moshina bir-biri bilan to’qnashdi. Bu hodisa haqida Rossiyada va boshqa mamlakatlarda ko’p insonlar eshitdi. Nega deysizmi? Chunki Jipda Rossiyaning mashhur aktyori bor edi. U mast holatda moshina haydagan va natijada u boshqa moshinaning qarshisiga chiqgan. Ular yuzma-yuz to’qnashgan. Aktyorga xech narsa bo’lmadi. Lekin furgonning haydovchisi kasalxonaga olib ketildi. Afsuski ertasi kuni u o’ldi. U 57 (ellik yetti) yoshida edi. Endi rus aktyori uy qamog’ida. Tez orada uning sudi/hukmi bo’ladi. Menimcha endi u hech qachon mast holatda moshina haydamaydi.

Agar spirtli ichimlik ichsangiz, iltimos moshina haydamang va rulga o’tirmang!

hodisa - event
sodir bo’ldi - something happened
holatda - in condition
natija - result
tez orada - soon
endi - from now; anymore
mast - drunk
furgon - van
qamoq - prison/jail

Fantaziya

Draculaning saroyi

by Jan Oko

Bu uy katta. Bu saroy. Saroyda Dracula yashaydi. Bu saroy katta va vahimali. Devorlar kul rangda. Saroyda ikkita minora bor. Minoraning tomi qizil. Saroyning darvozasi qora va katta. Darvoza o'zi ochilyapti. Saroyning darvozasi ochiq lekin menimcha ichkariga kirish xavfli. Saroyda arvoh ham yashaydi. Arvohning libosi oq.

U yerda necha daraxt bor? Saroyning yonida bitta daraxt bor. Daraxt qo'rqinchli.

Saroyga Dracula boryapti. Uning oti qora va baquvvat. Dracula tez boryapti. Nega? Chunki tong otyapti!

arvoh - ghost
baquvvat - strong
bormoq – to go
darvoza - gate
devor – wall
ichki – inside
kirmoq – to enter
libos - clothes
minora – tower
ochiq - open
ot - horse
qo'rqinchli – fearful, dreadful
saroy – castle
tom - roof
tong otmoq – to dawn
vahimali – scary
xafli – dangerous

Qotillik

Amerikada bir tadbirkor yashar edi. Uning va do'stining kompaniyasi bor edi. Kompaniya juda katta edi va ko'p pul keltirar edi.

Kate Smith qichqiriqni eshitdi. Bu Johnson xonim edi. Kate nima bo'lganini ko'rish uchun tepaga yugurdi. Johnson xonim erining

yotoqxonasiga ertalabki choyni keltirgan edi. U yotoqxonaning eshigi yonida edi, choynak va piyola yerda edi. Johnson xonim hushidan ketdi. Kate xonaga qaradi va u ham qichqirishini boshladi. U yotoqda janob Johnsonni ko'rdi. U o'lgan edi va ko'kragida oshxona pichog'i bor edi.



Johnson xonim o’z erini taxminan ertalab soat 8 da (sakkizda) ko’rdi. Politsiyaning tergovchisi Henry Evans ularnikiga keldi.

“Janob Johnson tunda o’ldirilgan” deb Henry Evans aytdi. “Hech kim eshik yoki derazalarni sindirmagan. Menimcha qotil uyda.”

Tergovchi hammani mehmonxonaga kelishini so’radi. Olti kishi keldi: xonim Christine Johnson; Kate Smith, janob Johnsoning xizmatkori; janob Mike Davies, janob Johnsoning biznes sherigi va uning xotini Barbara Davies; Edward Wilson, janob Johnsonning do’sti va uning xotini Dorothy Wilson.

Henry Evans “Avval Johnson xonim bilan gaplashmoqchiman” dedi. “Kutubxonada suhbatlasha olamizmi?”

Christine Johnson “yaxshi” deb javob berdi.

Ular kutubxonaga bordilar. U yerda ko’p kitoblar, eski va chiroyli ish stoli, ikkita kreslo va kofe stoli bor edi. Ular kresloga o’tirishdi.

“Siz kecha kechqurun nima qildingiz?” deb Evans so’radi.

“Tushdan keyin, men Kate Smith bilan kechki ovqatni tayyorladim. O’tgan yili, mening erimning kompaniyasi ko’p pul qozondi va biz uni nishonlamoqchi edik. Erimning tug’ilgan kuni ham bor edi. Soat oltida ovqatlanishga bo’shladik. Ovqatdan keyin aylanishga bo’rdim. Men ular bilan boshqa vaqt o’tkaza olmadim.”

“Nimaga?” deb Evan qiziqib qoldi.

“Ular hamma vaqt pul haqida gapiradilar. Erim yosh bo’lganida, u juda romantik edi. Lekin oxirgi yillarda faqat biznes va pul haqida suhbatlashishni istar edi. U mendan kompaniyasini ko’proq sevar edi.”

Christine Johnson yig'lay boshladi. "Va endi u boshqa meni sevmay... sevmas edi."

"Aylanishdan keyin nima qildingiz?"

"Taxminan soat to'qqizda uyga qaytdim. Erkaklar salondda edilar. Men ayollarning yoniga bordim. Biz ozgina suhbatlashdik va ozgina ichimlik ichdik. Erim baqira boshladi. Menimcha erkaklar bahslashdilar lekin nima haqida bilmayman. Charchagan edim."

"Kim birinchi bo'lib uxladi? Sizmi yoki eringizmi?"

"Men. Taxminan soat o'n yarimda xonamga bordim."

"Sizning eringiz qachon keldi?"

"Bilmayman. Biz boshqa xonalarda uxlaymiz."

"Nimaga?"

"Men erim bilan yashashni istamayman. U yomon inson edi."

"Siz uni o'ldirdingizmi?"

Christine Johnson yana yig'lay boshladi.

to be continued...

davomi bor...

qotil – murderer
zebo/nafis - elegant

Grammar exercises

Mening yaqin do’stim

by Fayzulla Halillayev

Complete the gaps with correct translation into Uzbek

[1] _____ (my name is) Murod va bugun men sizlarga [2] _____ (my friend) haqida aytib [3] _____ (I am going to tell). _____ (his name) Jacob. U juda qiziqarli va yaxshi inson, shuning uchun men u haqida sizga aytib bermoqchiman. U [4] Amerika_____ Florida shtati_____ (he is from). U 40 [5] yosh_____ (he is 40 years old). [6] U_____ oyi_____ (his mother), [7] aka_____ (his older brother) va [8] opa**si** (older sister) bor. Men u bilan Istanbulda [9] tanish_____ (I met him). [10] U_____ Amerikada shirkat**i** bor (he has a company in America). U bu [11] shirkat_____ boshli_____ (he is a boss of this company). Ko’pincha u uydan [12] ishlay_____ (he works). Lekin yilda ikki marta ishi va [13] oyi_____ (his mother) ko’rish uchun Amerikaga [14] ket_____ (he leaves/goes). [15] Oyi_____ (his mom) uni juda yaxshi [16] _____ (she loves him), chunki u uning eng aqlli va mehribon [17] bola_____ (her child). [18] U oyi_____ (his mom) uchun hamma narsaga tayyor.

Biz tez-tez [19] ko’rishib tur_____ (see/meet), chunki do’stlar birgalikda vaqt o’tkazishlari kerak. Menimcha agar inson do’sti bilan ko’p suhbatlashmasa va birgalikda vaqt o’tkazmasa ular yaqin do’st emaslar. Odatda men [20] u_____ uy_____ (to his house) tez-tez mehmonchilikga [21] bor_____ (I go). Va har dushanba [22] u_____ uy_____ (in his house) men unga turkcha [23] o’rgat_____ (I teach). Har safar biz mazali qahva [24] ich_____ (we drink). Do’stim qahvani juda [25] sev_____ (he loves). Har kun 10 yoki 15 finjon qahva [26] ich_____ (he drinks). Shunga qaramay u juda yaxshi [27] uxla_____ (sleeps). Men esa faqat 1 finjon qahva ichaman.

Jacob hozir [28] uy_____ (in his house) [29] oy_____ (his mother) bilan. U yerda pandemiya juda kuchli va ko'p insonlar kasal, shuning uchun u [30] oy_____ (his mother) bilan va unga g'amxorlik [31] qil_____ (he is taking care of). U juda yaxshi o'g'il. U uzoqda bo'lsa ham biz tez-tez telefonda va zoomda [32] suhbatlash_____ (we talk). Pandemiya tugaganidan keyin u bu yerga keladi.

Agar...

by Fayzulla Halillayev

Put the verbs in correct conditional form

Agar men bugun ishdan uyga ertaroq [1] _____ (come) va vaqtim [2] _____ (have), men film izlayman. Agar men qiziqarli film [3] _____ (find) do'stimni chaqiraman. Film do'stimga [4] _____ (like) boshqa do'stlarimga ham bu filmni izlashni tavsiya qilaman. Film tugaganidan keyin agar do'stim [5] _____ (want) birgalikda barga boramiz. Barda yaxshi pivo [6] _____ (be) biz pivo ichamiz. Agar yaxshi pivo [7] _____ (not be) biz sharob ichamiz. Keyin men taksi topa [8] _____ (can) men uyga kelaman. Agar topa [9] _____ (can't) men ukamga qo'ng'iroq qilaman va u meni uyga olib boradi. Agar ukam telefoniga [10] _____ (not answer) men uyga avtobusda boraman.

Uyga [11] _____ (come) men dush olaman va uxlayman. Ertaga erta [12] _____ (wake up) men yuguraman va keyin dush qabul qilaman. Agar xotinim menga nonushta [13] _____ (make) men nonushta qilaman va keyin ishga ketaman.

Key to exercises

Mening yaqin do’stim

[1] **Ismim** (my name is) Murod va bugun men sizlarga [2] **do’stim** (my friend) haqida aytib [3] **bermoqchiman** (I am going to tell). **Uning ismi** (his name) Jacob. U juda qiziqarli va yaxshi inson, shuning uchun men u haqida sizga aytib bermoqchiman. U [4] Amerika**ning** Florida shtati**dan** (he is from). U 40 [5] yosh**ida** (he is 40 years old). [6] U**ning** oyi**si** (his mother), [7] aka**si** (his older brother) va [8] opa**si** (older sister) bor. Men u bilan Istanbulda [9] tanish**dim** (I met him). [10] U**ning** Amerikada shirkat**i** bor (he has a company in America). U bu [11] shirkat**ning** boshli**g’i** (he is a boss of this company). Ko’pincha u uydan [12] ishlay**di** (he works). Lekin yilda ikki marta ishi va [13] oyi**sini** (his mother) ko’rish uchun Amerikaga [14] ket**adi** (he leaves/goes). [15] Oyi**si** (his mom) uni juda yaxshi [16] **ko’radi** (she loves him), chunki u uning eng aqlli va mehribon [17] bola**si** (her child). [18] U oyi**si** (his mom) uchun hamma narsaga tayyor.

Biz tez-tez [19] ko’rishib tur**amiz** (see/meet), chunki do’stlar birgalikda vaqt o’tkazishlari kerak. Menimcha agar inson do’sti bilan ko’p suhbatlashmasa va birgalikda vaqt o’tkazmasa ular yaqin do’st emaslar. Odatda men [20] u**ning** uy**iga** (to his house) tez-tez mehmonchilikga [21] bor**aman** (I go). Va har dushanba [22] u**ning** uy**ida** (in his house) men unga turkcha [23] o’rgat**aman** (I teach). Har safar biz mazali qahva [24] ich**amiz** (we drink). Do’stim qahvani juda [25] sev**adi** (he loves). Har kun 10 yoki 15 finjon qahva [26] ich**adi** (he drinks). Shunga qaramay u juda yaxshi [27] uxla**ydi** (sleeps). Men esa faqat 1 finjon qahva ichaman.

Jacob hozir [28] uy**ida** (in his house) [29] oyi**si** (his mom) bilan. U yerda pandemiya juda kuchli va ko’p insonlar kasal, shuning uchun u [30] oyi**si** (his mother) bilan va unga g’amxorlik [31] qil**yapti** (he is taking care of). U juda yaxshi o’g’il. U uzoqda bo’lsa ham biz tez-tez telefonda va zoomda [32] suhbatlash**amiz** (we talk). Pandemiya tugaganidan keyin u bu yerga keladi.

Agar...

Agar men bugun ishdan uyga ertaroq [1] **kelsam** (come) va vaqtim [2] **bo'lsa** (have), men film izlayman. Agar men qiziqarli film [3] **topsam** (find) do'stimni chaqiraman. Film do'stimga [4] **yoqsa** (like) boshqa do'stlarimga ham bu filmni izlashni tavsiya qilaman. Film tugaganidan keyin agar do'stim [5] **istasa** (want) birgalikda barga boramiz. Barda yaxshi pivo [6] **bo'lsa** (be) biz pivo ichamiz. Agar yaxshi pivo [7] **bo'lmasa** (not be) biz sharob ichamiz. Keyin men taksi topa [8] **olsam** (can) men uyga kelaman. Agar topa [9] **olmasam** (can't) men ukamga qo'ng'iroq qilaman va u meni uyga olib boradi. Agar ukam telefoniga [10] **javob bermasa** (not answer) men uyga avtobusda boraman.

Uyga [11] **kelsam** (come) men dush olaman va uxlayman. Ertaga erta [12] **uyg'onsam** (wake up) men yuguraman va keyin dush qabul qilaman. Agar xotinim menga nonushta [13] **tayyorlasa** (make) men nonushta qilaman va keyin ishga ketaman.

Lug’at

afsona – legend, myth
ancha (= ko’p) – much, many
arvoh - ghost
asteroidlarning kamari – asteroid belt
aylanmoq – to go round
baquvvat - strong
barobar = marta - times
bormoq – to go
boshlamoq – to start
boshlanmoq – to be started
bosim – pressure
darvoza - gate
dasturchi – programmer
devor – wall
dubulg’a - helmet
ekinlar – crops
endi - from now; anymore
endigina uzilgan - fresh
furgon - van
g’isht - brick
har doimgidek – as usual
hisoblanadi - was considered
hodisa - event
holatda - in condition
ichki – inside
ichki sayyora – internal planet
ilhom – inspiration
jang - war
jasur – brave
jiyan - nephew
kamon – bow
kayfiyat – mood
kech qolmoq – to be late
kema – ship
kirmoq – to enter
koinot – universe
kuchli – strong
libos - clothes
mast - drunk
Mersin - Turkiyada bir shahar.
minmoq – to take (bus, metro, car)
minora – tower
Misr haykallari – Egyptian statues
nafis – elegant
natija - result
nayza – spear
o‘rta asrlarga oid – medieval
o’ldirmoq – to kill
o’q – arrow
o’xshash – similar
ochiq - open
oliy – supreme
orol – island
o'rta asrlar – middle ages
ot - horse
otda yurmoq – to ride a horse
o'ynab turamiz (= o’ynaymiz) – to play
piyoda borish – to go on foot
qadimgi – ancient
qadimgi qurollar – ancient weapons
qahramon – hero
qalqon – shield
qamoq – prison, jail
qaroqchi – pirate
qasr – castle
qilich – sword
qirollik - kingdom
qo'ndoqli kamon – crossbow
qo'rqinchli – fearful, dreadful
qotil – murderer
ritsar – knight
ritsar – knight
sabzi – carrot
saroy – castle
saroy – palace
shirkat – company, office
shu sababli = shuning uchun
sodir bo’ldi - something happened

tasavvur – imagination
tasir qilmoq – to effect
taxt – *Taxtda shoh o'tiradi. U toj kiyadi.*



tez orada - soon
titroq – quiver
toj - crown
tojirat xudosi – god of commerce
tom - roof
tong – morning
tong otmoq – to dawn
tuk – feather
vahimali – scary
xafli – dangerous
xayriyat – luckily
Yunon - Greek
zebo - elegant
zich – dense

Contents